

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi
Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig‘i**




_____ **S.Palvanov**

**O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi
Xorazm viloyati boshqarmasi tomonidan
"Kelajak mutaxassislari — 2022"
nomli grant tanlovi**

TEXNIK ShARTLARI

2022 yil

MUNDARIJA

1. O'qiladigan o'quv mashg'ulotlarining nomlanishi hamda foydalanish maqsadi
2. O'quv mashg'ulotlar ro'yxati va ularning muddati
3. O'quv mashg'ulotlar o'qiladigan manzil (joyi)
4. O'quv mashg'ulotlarning sharti va o'quv mashg'ulotlar o'tish muddati
5. O'quv mashg'ulotlar davomida xavfsizlikni ta'minlashga talablar
6. O'quv mashg'ulotlarning natijalarini topshirish va qabul qilish tartibi
7. O'quv mashg'ulotlar sifatiga kafolat bo'yicha talablar
8. O'quv mashg'ulotlar o'tkazishga qo'yiladigan boshqa talablar.
9. Qabul qilingan qisqartirishlar ro'yxati

1-BO'LIM.

O'TLADIGAN O'QUV MASHG'ULOTNING NOMLANISHI HAMDA FOYDALANISH MAQSADI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risidagi nizomning 11-bandi to'qqizinchi xatboshisi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 400-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakillantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomning 6-bandi uchunchi, o'n birinchi va o'n uchinchi xatboshilarida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida 30-iyun "Yoshlar kuni" munosabati bilan Yoshlar ishlari agentligi 200 nafar Xorazm viloyatidagi faol yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun **"Kelajak mutaxassislari — 2022"** nomli ta'lim grantini e'lon qiladi.

2-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLAR RO'YXATI, QABUL KVOTASI VA ULARNING MUDDATI

30-iyun "Yoshlar kuni" munosabati bilan Yoshlar ishlari agentligi 200 nafar Xorazm viloyatidagi faol yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun "Kelajak mutaxassislari — 2022" nomli ta'lim grantini quyidagi tartibda amalga oshiradi:

1-bosqichda:

№	Ta'lim kursi	Davomiyligi	Belgilangan o'gil bolalar soni	Belgilangan qizlar soni	Ta'lim grant kvotasi jami
1	Web dasturlash	7 oy	15 nafar	5 nafar	20 nafar
2	Arxitektura va dizayn	3 oy	15 nafar	5 nafar	20 nafar
3	Video montaj	3 oy	15 nafar	5 nafar	20 nafar
			45 nafar	15 nafar	
JAMI:					60 nafar

2-bosqichda:

№	Ta'lim kursi	Davomiyligi	Belgilangan o'gil bolalar soni	Belgilangan qizlar soni	Ta'lim grant kvotasi jami
1	Web dasturlash	7 oy	15 nafar	15 nafar	30 nafar
2	Arxitektura va dizayn	3 oy	25 nafar	25 nafar	50 nafar
3	Video montaj	3 oy	45 nafar	15 nafar	60 nafar
			85 nafar	55 nafar	
JAMI:					140 nafar

3-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLAR O'TILADIGAN MANZIL (JOYI)

O'quv mashg'uloti o'quv markazining ma'muriy binosida maxsus jihozlangan xonalarida o'tkaziladi. O'quvchilarni dars davomida zamonaviy kompyuterlar va cheksiz internet bilan ta'minlash hamda darslarni amaliy olib borish bo'yicha VR ko'zoynaklar, 3D printerlar, Grafik planshetlar va video kameralar bilan ta'minlash imkoniyati bo'lishi lozim. O'quv binosida bir paytning o'zida 200 nafar o'quvchini o'qita olish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim.

4-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLARINING SHARTI

"Kelajak mutaxassisleri — 2022" nomli ta'lim granti doirasida ishtirok etish bo'yicha ma'lumotlar buyurtmachi tashkilotga doimiy tarzda berib borilishi lozim.

O'quv mashg'ulotlari O'zbek tilida olib borilishi kerak.

O'qitish xizmatini amalga oshiradigan tashkilot davlat xaridlari sohasida vakolatli organ tomonidan Ta'lim tashkiloti sifatida Web dasturlash, Arxitektura va dizayn, Video montaj sohalarida o'qitish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim tashkiloti IT park rezidentligini ko'rsatuvchi sertifikatga ega bo'lishi kerak. (Bu ortiqcha xarajatlarni qisqartirib xizmatni amalga oshiradigan tashkilotga soliqdan imtiyoz beradi)

Web dasturlash, Arxitektura va dizayn, Video montaj sohalarida Oliy ma'lumotli o'qituvchilar dars berishi lozim.

Ta'lim tashkiloti tashkil qilinganiga kamida 2 yil bo'lgan bo'lishi lozim.

Ta'lim tashkilotining markaz shtatida ta'lim sifati nazoratchisi lavozimida xodim faoliyat yuritilishi lozim.

O'quvchilarni dars davomida zamonaviy kompyuterlar va cheksiz internet bilan ta'minlash hamda darslarni amaliy olib borish bo'yicha VR ko'zoynaklar, 3D printerlar, Grafik planshetlar va video kameralar bilan ta'minlash imkoniyati bo'lishi lozim.

O'quv binosida bir paytning o'zida 200 nafar o'quvchini o'qita olish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim.

O'quvchilar bepul kofe break va o'quv qurollari bilan ta'minlanishi lozim.

O'tilayotgan har bir mavzular video orqali yozib olinib o'quvchilarga bepul berib borilishi lozim.

Ta'lim tashkiloti kurs so'ngida muvaffaqiyatli bitiruvchilarni sertifikat bilan ta'minlashi lozim.

5-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLARINING BOSHLASH VA YAKUNLASH MUDDATI (DAVRI)

O'quv mashg'ulotlar muddati 3 oydan 7 oygacha. Boshlash sanasi 2022-yil iyun oyi. O'quv mashg'ulotlarini olib borish xizmati jamiyat va o'quv muassasasi o'rtasida o'rnatilgan tartibda shartnoma imzolanganidan keyin amalga oshiriladi.

6-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLARI DAVOMIDA XAFSIZLIKNI TA'MINLASH TA'LABLARI

O'quv mashg'ulotlari davrida tinglovchilar o'quv markazining ichki mehnat tartib qoidalari talablariga to'liq rioya qilishlari zarur.

7-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLARINING NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

O'quv muassasasi o'quv jarayonlari tugagach mashg'ulotda qatnashgan tinglovchilar to'g'risida yakuniy xulosa qilingan hujjatlar to'plamini jamiyatga taqdim qiladi.

O'quv jarayonlari o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlar jamiyat tomonidan taqdim qilingan ro'yxat, bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma va boshqa hujjatlar hisoblanadi.

Bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma jamiyatdagi ma'lumotlar bilan solishtirilganidan keyin jamiyatning tegishli mutaxassislari va o'quv muassasasi tomonidan imzolanadi.

Hisobot davri bo'yicha buyurtmachi va ishlarni (xizmatlarni) ko'rsatuvchi tashkilot rahbariyati tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilib imzolanganidan so'ng ishlar to'liq bajarilgan hisoblanadi va to'lov uchun hisob-faktura yoziladi.

8-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLARINING SIFATIGA KAFOLAT BO'YICHA TA'LABLAR

O'quv muassasasiga o'quv mashg'uloti davomida tinglovchilarning grafik asosida to'liq qatnashishini talab qilish, o'quv mashg'ulotlari bo'yicha o'qituvchilar tomonidan tinglovchilarning to'liq tartib intizomga rioya qilishlarini qat'iy talab etishiga ruxsat etiladi.

Dars mashg'ulotlari esa quyidagi grafikda keltirilgan texnologiyalarni o'rgatishga qaratilgan mavzular orqali amalga oshirilishi kerak:

№	Ta'lim kursi	O'rgatiladigan texnologiya	Kurs yakunida
1	Web dasturlash	FrontEnd dasturlash: HTML, CSS, SASS, Bootstrap, Git, Github, Javascript, React js, Redux, Material UI Backend: Node.Js - Python; Express.js, dJango, MongoDB, GIT, RESTful API, Telegram bot	Loyihani rejalashtirish, foydalanuvchi interfeysini yaratish, "Verstka" qilish, loyihalarni deploy qilish, serverga joylash, animatsiyalar yaratish va ular bilan ishlash, o'z portfolio sayтини yaratish bilim va ko'nikmalari o'rgatiladi. Shuningdek, o'quv dasturining Backend qismida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib hozirda trendga aylanayotgan web saytlarni "Vyorstka" qila olish, Onlayn do'konlar va kichik servis xizmatini ko'rsatuvchi ilovalar yaratish, Web hosting va domenlar bilan ishlash, API bilan ishlash va o'zi mustaqil API yoza olish va yana bir qancha ko'nikmalarga ega bo'lishadi.
2	Arxitektura va dizayn	AutoCAD, 3Ds MAX, Lumion	Uy, ofis va boshqa binolarni chizmasini loyihalashtirish va uni 3D grafika ko'inishda tasvirlash, 3D modellar yaratish, binolarning ichki va tashqi dizayni, landshaft dizayn va mebel dizaynlarini professional darajada ishlay olish, vizual videolarni tayyorlash va boshqa shu sohaga oid bilimlarga ega bo'lish.
3	Video montaj	Adobe Premiere, Video operatorlik, After Effects	Video operatorlik mahoratiga ega bo'lib, sohada texnologik jihatdan xalqaro standart asosida ishlash, har qanday turdagi video mahsulotga shakl berish, montaj qilish, ixchamlash, effect berish va shu kabi taxrirlash bilan bog'liq ko'plab texnologik bilimlarga ega bo'lish

9-BO'LIM.

O'QUV MASHG'ULOTLAR O'TKAZISHGA QO'YILADIGAN BOSHQA TALABLAR

O'quv mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi doimiy monitoring qilib borilishi, ichki ta'lim nazoratchilari orqali har bir o'quvchiga xulosa berib borilishi lozim. O'zlashtirilishi sust bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha bepul mashg'ulotlar olib borish lozim. Bundan tashqari har bir oy yakuni bo'yicha o'quvchilardan imtixon olinib, o'zlashtirish darajalari nazorat qilib borilishi lozim. O'quv mashg'ulotlari davrida jamiyatning ta'lablaridan kelib chiqib o'quv muassasa bilan kelishilgan holda mashg'ulotlar o'tkazish grafigi o'zgartirilishi mumkin.

10-BO'LIM.

QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR RO'YHATI

T/r	Qisqartma	Qisqartmaning to'liq yoyilmasi
-	-	-

Ishlab chiqdi:

Boshqarma mutaxassisi

Kelishildi

Yuriskonsult



U.Mattiyev

I.Yusupov